

**TA'LIM - TARBIYA JARAYONIDA HADISLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY  
AHAMIYATI**

**Raximova Roxat Boysoatovna**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi*

*Tibbiy biologiya fakulteti*

*2-kurs talabasi Abduraximova Maftuna Kamoliddin qizi*

**Annotatsiya:** *Maqolada hadislarning paydo bo'lishi, hadis ilmi, islom sivilizatsiyasining rivojlanishida va inson kamolotida hadislarning ta'limiy -tarbiyaviy ahamiyati, hadis namunalari va ularning mazmunmohiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *hadis, hadis ilmi, islom sivilizatsiyasi, inson kamoloti, hadis namunalari, buyuk allomalar, ma'naviy meros, sharqona ta'lim va tarbiya*

**Аннотация:** *В статье говорится о возникновении хадисов, науке о хадисах, воспитательном и воспитательном значении хадисов в развитии исламской цивилизации и развития человечества, примерах хадисов и их содержании.*

**Ключевые слова:** *хадисоведение, хадисоведение, исламская цивилизация, человеческое совершенство, примеры хадисоведения, великие ученые, духовное наследие, восточное образование и обучение.*

**Annotation:** *The article talks about the origin of hadiths, the science of hadiths, the educational and educational significance of hadiths in the development of Islamic civilization and the development of mankind, examples of hadiths and their content.*

**Key words:** *hadith studies, hadith studies, Islamic civilization, human perfection, examples of hadith studies, great scholars, spiritual heritage, oriental education and training.*

Hadis - islom dinida Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati, uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Muhammad payg'ambar biror gap aytgan, biror ish qilib ko'rsatgan yoki boshqalar qilgan biron-bir ishni ko'rib turib, uni man etmagan bo'lsa, ana shu uch holat sunnat hisoblanadi. Ana shunday xatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar hadis deb yuritiladi. Hadis ilmining rivojlanishiga, ayniqsa, bizning yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar ulkan hissa qo'shishgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil alBuxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy o'z umrlarini hadis to'plash va ularni o'rganishdek muqaddas ishga bag'ishlaganlar.

Hadislar tuzilishiga ko'ra, yuqorida ta'kidlanganidek, ikki qismdan - hadisning mazmuni (matni) va uning sanadidan iborat. Hadislarni bir-biridan eshitib, rivoyat qilib, avloddan avlodga qoldirib kelgan roviylar ro'yxati hadisning musnadi deyiladi. Muhammad payg'ambardan so'ng biron-bir hadis yozib olingunga qadar o'tgan vaqt ichida ushbu

hadisni bir-biriga naql qilib kelgan roviylar tartibida (musnadda) uzilish bo'lmasa, bunday hadislar ishonchli hisoblangan. Mustaqil respublikamizning oldida turgan asosiy vazifalardan biri - yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Ta'lim maskanlarimiz ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z mustaqil Vatanimizdan faxrlanish tuyg'usiga boy kishilarni tarbiyalashi kerak. Bu esa ta'lim - tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamli muammolardan biridir. Xalq ta'limi tizimida hal qiluvchi inson-o'qituvchidir. Agar o'qituvchi ijodkor va izlanuvchan bo'lsa, o'quvchining bilim darajasi ham baland bo'ladi. O'qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta'lim mazmunini egallagan bo'lishlari kerak. Pedagog xodimlar o'zlarini kasb ko'nikmalari muallimlik va tarbiyachilik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart, deb ta'kidlanadi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda. O'qituvchi kasbining nozikligi, mas'uliyatliligi va murakkabligi hamda sharafli ekanligi to'g'risida mulohazalar, muallimning mahorati, ularga qo'yiladigan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, munosabatga kirishish mahorati, muomala madaniyati Sharq mutafakkirlarining asarlarida o'z ifodasini topgan.

Sharq pedagogikasi va pedagogik mahorati ming yillik tarixga ega. Sharq ma'naviy-madaniyatining xilma-xil jihatlari, ayniqsa Uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib, bu davrda yashab ijod etgan Abu Nasr Farobiy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Devoniy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida yosh murabbiylarning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda mamlakatimizda pedagogik faoliyatning rivojlanishida jahon mutafakkir-olimlarining pedagogik qarashlari va ta'limotlari ijobiy ahamiyatga egadir. Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi-sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi;- bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilimga ega bo'lish, turli bilimlardan xabardor bo'lishi; - yosh pedagog psixologiya, pedagogika, yoshlar fiziologiyasi, maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustaqil bilimga ega bo'lib, o'z kasbi sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi; -ta'lim-tarbiya metodikasini egallashi; - o'z ishiga ijodiy yondashishi;

- pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari va pedagogik taktga ega bo'lishi;

- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi kabi talablarga to'la javob bera olishga intilishi lozim va shart.

Ushbu vazifa va maqsadlarni ijobiy hal etishi natijasida o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarida umumiy didaktik printsiplarni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. Ma'ulumki, o'qituvchi faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o'qitadi, ta'lim beradi. Shunga asosan o'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondoshishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Shu o'rinda ilmga oid birqancha hadislarni keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman. Payg'ambarimiz S.A.V. dedilar: 1) Ilmning ofati - esdan chiqarmoqlik va ilmga rag'bati bo'lmagan kishilarga o'rgatib, uni zoye ketkazmoqlikdir. 2) Kim ilm yo'lini tutsa, Alloh uni jannat yo'liga yo'llab qo'yadi. Albatta, farishtalar ilm talabidagi kishiga rozi bo'lib, qanotlarini yozib turadilar. Darhaqiqat, olim kishi uchun yer – osmondagi mavjudotlar va hattoki suvdagi baliqlar ham istig'for aytadilar. Albatta olimning obidga nisbatan fazilati to'lin oyning yulduzlarga ko'ra fazliga o'xshaydi. Darhaqiqat, ulamolar payg'ambarlarning merosxo'ridir. Payg'ambarlar dinor va dirhamlarni meros qoldirmadilar, ular faqatgina ilmni meros qoldirganlar. Kimki uni olsa, to'liq nasiba olibdi" 3) Darhaqiqat, olim kishi uchun yer – osmondagi mavjudotlar va hattoki suvdagi baliqlar ham istig'for aytadilar 4) Albatta olimning obidga nisbatan fazilati to'lin oyning yulduzlarga ko'ra fazliga o'xshaydi 5) Ilmdan bir bob o'rganib tong ottirishing yuz rakat namoz o'qishingdan afzaldir 6) Ilmni Chinda (Xitoyda) bo'lsa ham o'rganinglar. 7) Ilm – xazina, uning kalitlari- savol. So'ranglar, so'rashda 4 kishi savobga ega bo'ladi: So'rovchi, olim, eshituvchi, ularni do'st tutuvchi. 8) Johil bilmaganini so'ramasligi, olim bilganini aytmasligi durust emas"

Abu Zarr rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Olimning majlisida hozir bo'lish ming rakat namozdan, mingta kasalni borib ko'rishdan, mingta janozada ishtirok etishdan afzaldir", dedilar. Shunda: "Yo Rasululloh, Qur'on tilovatidan ham yaxshiroqmi?" deb so'rashdi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Ilm bo'lmasa, Qur'on tilovati foyda beradimi?"

Islom buyuklari ham ilm o'rganish fazilatini ham ko'p ta'kidlashgan. Ibn Abbas roziyallohu anhu aytdilar: "Ilm olishda (qiynaldim), bir oz xorlandim, tilagim hosil bo'lgach azizu mukarram bo'ldim".

Xulosa qilib aytganda, ta'lim - tarbiya jarayonida hadislardan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati beqiyos bo'lib, u shaxsning ma'naviyatini yuqori darajaga olib chiqadi. Undagi insoniy tuyg'ularni kamol topib, ildiz otishida o'ziga xos omil hisoblanadi. Alloh taolo ilm sababli olimlarni oliy qilib, yaxshilik amallarga yo'l boshlovchi qiladi. Farishtalar, jamiki xayvonlar, parrandalar, dengizdagi baliqlar xattoki ho'l—quruq narsalar borki barcha—barchasi olimning ilmi sababli unga istig'for aytadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Sodiqova, D. (2020). Buyuk allomalarimiz asarlarida oilada bola tarbiyasining ahamiyati haqida qarashlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2 (10), 25-30.

3. Boysoatovna, R. R. (2022). KASB TANLASH MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(11), 65-69.

4. . Boysoatovna, R. R. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING O'ZIGA HOS JIHATLARI. Scientific Impulse, 1(6), 419-423.

5.Boysoatovna, R. R. (2023). TALIM DARAJASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 490-496.

6. Boysoatovna, R. R. (2023). THE EFFECT OF TRUST BETWEEN THE DOCTOR AND THE PATIENT ON THE EFFECTIVENESS OF TREATMENT. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 482-485.

7. Boysoatovna, R. R., & Muxayyo, A. (2023). TIBBIYOT XODIMLARI O'RTASIDAGI IJOBIY MUHITNI YARATISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TAVSIYALAR. Scientific Impulse, 1(6), 424-429.

8.Raximova R "O'RTA ASR SHARQ OLAMI YETUK MUTAFFAKKIRI ABU NASR FAROBIY ASARLARIDAGI PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK QARASHLAR “ Научный Импульс» 1 dekabr 2022

9.Rohat, R. (2021, February). THEORETICAL OVERVIEW OF THE PERSONALITY OF THE LEADER. In Archive of Conferences (pp. 42-44).

10. Zarnigor, N. (2022). TIBBIY PSIXODIAGNOSTIKADA KOGNITIV FUNKSIYALAR DIAGNOSTIKASI MUAMMOSI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(3), 43-46.

11. Raxmatjonqizi, N. (2023). PSIXOLOGIKYETUKLIKNINGIJTIMOIY-PSIXOLOGIKOMILLARI. Scientific Impulse, 1(6), 436-438.